

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litseyidagi dastlabki imtixon olish kunlari Covid -19 kasalligi ko'payib ketmasligi uchun bir oz muddatga kechiktirilganini ma'lum qilamiz. Yangiliklarni o'zimiz yetkazib boramiz.

Tushunganingiz uchun RAXMAT!

[Iqtisod qabul 2021 \(o'zbek\)](#)

[Iqtisod qabul 2021 \(rus\)](#)

[Texnika qabul 2021 \(o'zbek\)](#)

[Texnika qabul 2021 \(rus\)](#)

### **2021-2022-o'quv yilida akademik litseyga hujjat topshirgan abituriyentlar diqqatiga!**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 212-son "Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish, o'qishga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litseyiga 2021-yil 20-iyundan 2021-yil 30-iyungacha qadar o'rta ta'lim muassasasining 9-sinf bitiruvchilari hujjatlari belgilangan tartibda ( onlayn va offlayn) qabul qilindi.

Akademik litseyda maslahat kengashi faoliyati to'g'ri tashkil etilganligi sabab qabul jarayoni hech qanday muammolarsiz, shaffoflik bilan o'tkazildi.

Akademik litseyga Aniq fan-1(texnika), Aniq fan-2 (iqtisod) yo'nalishlariga jami 1845 nafar abituriyentning hujjatlari qabul qilindi. Shundan Aniq fan-1 yo'nalishiga 675 nafar o'zbek, 276 nafar rus, Aniq fan-2 yo'nalishi bo'yicha

566 nafar o'zbek, 328 nafar rus abituriyentlar hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qarorida ko'rsatilganidek, akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni akademik litseylarga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida o'qitish, ulardagi keng dunyoqarash, intellektual salohiyat va ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida, tajriba tariqasida ikki bosqichli tizim asosida qabul qilinishi ta'kidlangan. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan maxsus hududlarda o'tkaziladigan **test sinovlari** bilan birgalikda **dastlabki yozma imtixon** akademik litseyda bevosita Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan o'tkaziladi.

Yurtimizda kechayotgan epidemiologik vaziyatning rivojlanayotganligi, aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi sabab kasallikni ko'payib ketmasligini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llagan holda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litseyida o'tkaziladigan **dastlabki yozma imtixon** bir oz muddatga kechiktirilganligini ma'lum qilamiz.

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litseyining qabul bo'yicha maslahat kengashi**

**Biz bilan quyida ko'rsatilgan Maslahat kengashi a'zolarining telefon raqamlari orqali bog'lanasiz:**

+99899 876 15 95,

+99890 912 60 90,

+99871 235 03 69.

**Manzil:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 112 uy.

**Mo'ljal:** Bodomzor metrosidan Hayvonot bog'i tomon 1 bekat yuriladi.

**Transport:** 19, 38, 50, 63, 115-avtobuslar; 12i, 140, 192- marshrut taksi.

**Faks:** (+99871) 234 50 46.

**Web site:** [www.itlyceum.uz](http://www.itlyceum.uz)

**E-mail:** [tatu-al@mail.ru](mailto:tatu-al@mail.ru)